

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi

4.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

#### V. Fors-major xolatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

#### VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

#### VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

#### VIII. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

"Ijrochi"

"Buyurtmachi"

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ

Farg'ona sh. Al.Farg'oniy ko'chasi 50 uy  
X/r 2020 8000 0002 1531 8001  
Uzbekiston Respublikasi «TIF Milliy Bank» AJ  
Farg'ona viloyat bulimi  
MFO 00493 STR 200 153 801  
OKOHX 71212  
QQS tulovchi :№ 330050016140  
Tel./Fax: (73) 244-66-14, 543-21-37

Фарғона вилоят Қон қўйиш станцияси
Фарғона шаҳар, Маданият кўчаси, 12-уй.
Факс/тел: (0 373) 243-21-77; 243-03-04
манзил: 40148180030010001010
x/r: 202504949
bank: ғана вилоят бўйича газначилик бoshқармаси
STIR: 2340200030010001010
Г'азначилик бо'лими nomi: Ташкент ш. 55
МФО: 00014 ИНН: 201122919

Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi XKKM  
Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010  
MFO: 00014 STIR: 201122919  
Tel: \_\_\_\_\_

"FARG'ONA DORI-DARMON" AJ


boshqaruvi raisi:

M.A.Tursunov



Rahbar:

(imzo, muxr, F.I.O.)



#### Huquqiy xulosa

Mazkur shartnoma loyihasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazib:

- Shartnoma loyihasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos xolda tuzilganligini;  
- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi qonuni asosida belgilanganligini aniqladim.

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shartnoma loyihasini qonun hujjatlari asosida tuzilgan deb hisoblayman va tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman.

"FARG'ONA DORI-DARMON" AJ yuristi

M.Yuldashev